




UNIVERSAL
CONFERENCE

**INTERNATIONAL
SCIENTIFIC
INNOVATION
RESEARCH
CONFERENCE**



PARIS

universalconference.us

**INTERNATIONAL SCIENTIFIC
INNOVATION RESEARCH CONFERENCE**
Volume 02, Issue 05, 2025 (15-SEPTEMBER)

Editor in Chief

Dr. Rajeet Ojha - Interdisciplinary Research in Basic Sciences, Jamia Millia Islamia, New Delhi -110025, India

Editorial Team

Sunita Sarawagi - Indian Institute of Technology Bombay, Mumbai, India.

Dr Manjunatha LH - Professor, REVA University, INDIA

Asish Bera - Edge Hill University, UK, BITS Pilani, India

Dr Sunildro LS Akoijam - Assistant Professor of Management, North Eastern Hill University, India

Madan Mohan Singh - Professor of Mathematics, North-Eastern Hill University, Shillong, India

Dr. Anupam Singh - Associate Professor-CSE, Graphic Era Hill University Dehradun, India

Dr. Sargam Bahl Walia - School of Management, Graphic Era Hill University, Dehradun, Uttarakhand, India

Narayan Pradhan - Indian Association for the Cultivation of Science

Ashok Kumar - Kumar Associate Professor E&CE National Institute of Technology. Hamirpur, India.

Anjali Pal - Department of Civil Engineering, Indian Institute of Technology Kharagpur - 721302, India.

Rajnish Joshi - Professor of Medicine, All India Institute of Medical Sciences, Bhopal, India

Mukul Kumar - IIT Mumbai (India); Meijo University (Japan); HEG Ltd. (India)

Prof. Kuruvilla Joseph - Indian Institute of Space Science and Technology (IIST)

Prof. Yogesh C. Sharma - D.Sc., FRSC, FBRF, FIAPS; FISEES, Department of Chemistry, Indian Institute of Technology

Professor Indra Mani Mishra - Indian Institute of Technology (Indian School of Mines), Dhanbad; Formerly at India

INTERNETDAN ORTIQCHA FOYDALANISH SHAXSNING IJTIMOY MOSLASHUVIGA TA'SIRI

O'zbekiston milliy pedagogika universiteti Tayanch doktoranti

Sharopov Nabi Mirzaali o'g'li

E-pochta: nabisharopov@gmail.com

Tel: +998942643694

Annotatsiya: Mazkur maqolada internetdan ortiqcha foydalanishning shaxsning ijtimoiy moslashuviga ko'rsatadigan salbiy psixologik ta'siri tahlil qilingan. Ijtimoiy moslashuv insonning jamiyatdagi ijtimoiy rollarni o'zlashtirishini anglatadi. Internetga haddan ziyod bog'lanish esa bu jarayonni sekinlashtiradi yoki buzadi. Maqolada yaqinlar bilan vaqt o'tkazishni kamaytirish, haqiqiy muloqotdan qochish, emotsional befarqlik va shaxslararo sovuqlik kabi muammolar yoritilgan

Kalit so'zlar: Internetga qaramlik, ijtimoiy moslashuv, ortiqcha foydalanish, haqiqiy muloqot, shaxslararo sovuqlik, psixologik ta'sir, raqamli detoks, empatiya, izolyatsiya, trening, psixoedukatsiya.

Kirish. Zamonaviy texnologiyalar inson hayotining deyarli barcha sohalariga chuqur kirib kelgan. Internet aloqadorlik, axborot almashinuvi va o'yin-kulgi vositasi bo'lish bilan birga, ayrim hollarda ortiqcha foydalanishga, hattoki qaramlikka olib keladi. Shu sababli, internetdan foydalanish intensivligi bilan shaxsning ijtimoiy moslashuvi o'rtasidagi bog'liqlik psixologiya fanida dolzarb tadqiqot yo'nalishlaridan biriga aylangan.

Internetdan ortiqcha foydalanish – bu shaxsning internetdan doimiy, nazoratdan chetda qolgan va hayotining boshqa sohalariga salbiy ta'sir ko'rsatadigan darajadagi foydalanishini anglatadi (Young, 1998). Bu holat:

- a) vaqtni noto'g'ri taqsimlash;
- b) real hayotdagi munosabatlardan uzoqlashish;
- c) akademik yoki professional faoliyatga salbiy ta'sir ko'rsatishi bilan tavsiflanadi;

Vaqtni noto'g'ri taqsimlash — bu shaxsning kundalik vazifalari va majburiyatlari uchun zarur bo'lgan vaqtni internetga, ayniqsa ijtimoiy tarmoqlar, o'yinlar yoki maqsadsiz “sayrlar”ga sarflab qo'yishi bilan bog'liq muammo bo'lib, bu holat quyidagi yo'nalishlarda yaqqol namoyon bo'ladi:

Akademik faoliyatda: Uy vazifalarini kechiktirish yoki bajarmaslik, imtihonlarga tayyorlanish vaqtining qisqarishi, mashg'ulotlarda chalg'ish (dars payti telefon

ko'tarish, parallel ijtimoiy tarmoqlarga kirish), darsga kechikish yoki umuman qatnashmaslik bilan tavsiflanadi va shaxsning kundalik raja va maqsadlarini izdan chiqarishga sababchi omil sifatida qaraladi.

Uyqu tartibining buzilishi: Kechasi soatlab telefon yoki kompyuterdan foydalanish, Uyqu vaqti qisqarib, charchoq, diqqatning susayishi yuzaga keladi, Ertalab uyg'onishda qiynalish, ertalabgi vazifalarga ulgurmaslik. Bu sabablar esa shaxsda biologik va fiziologik holatiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatadi. Chet el tadqiqotchilari uyqu ratsioni buzulgan ishchi xodimlarning ish kunidagi samaradorligida juda ko'plab kamchilik kuzatilishini aniqlashgan.

Internetdan o'rinli foydalana olmaslik oqibatida shaxs ijtimoiylashuv jarayoni ham sezilarli darajada izdan chiqishiga guvoh bo'lyapmiz. Bunga sabab qilib shaxsda shaxslararo munosabatlarda yaqinlar bilan vaqt o'tkazishni kamaytirish, haqiqiy muloqotdan ko'ra onlayn muloqotni afzal ko'rish, oila a'zolari yoki do'stlar bilan sovuqlik paydo bo'lishini aniq ko'rishimiz mumkin.

Yaqinlar bilan vaqt o'tkazishni kamaytirish: Mazkur holatda shaxs o'zining erkin vaqtining katta qismini ijtimoiy tarmoqlarda, onlayn o'yinlarda yoki boshqa virtual faoliyatlarda o'tkazadi. Bu esa ota-ona, opa-uka, turmush o'rtog'i yoki do'stlar bilan bo'ladigan bevosita muloqotni cheklaydi. Masalan, birgalikda ovqatlanish paytida ham telefonni qo'lidan tushirmaslik, suhbatga chalg'imaslik, jismoniy yaqin bo'lsa-da, emotsional aloqaning sustlashuvi bunga misol bo'la oladi.

Haqiqiy muloqotdan ko'ra onlayn muloqotni afzal ko'rish: Zamonaviy texnologiyalarning jadal rivojlanishi odamlar o'rtasidagi muloqot shaklini tubdan o'zgartirdi. Ayniqsa yoshlar orasida onlayn muloqot (xabar almashish, videoqo'ng'iroq, ijtimoiy tarmoqlar orqali suhbat) real hayotdagi bevosita muloqotga nisbatan ko'proq afzal ko'rilmogda. Bu holat — haqiqiy, ya'ni bevosita, jonli muloqotning ikkinchi darajaga tushib qolishi deb qaraladi.

Oila a'zolari yoki do'stlar bilan sovuqlik paydo bo'lishi: Internetdan ortiqcha foydalanish shaxsning real ijtimoiy hayotidan uzoqlashuviga olib keladi. Buning eng ko'zga ko'rinadigan oqibatlaridan biri — yaqin insonlar, ya'ni oila a'zolari yoki do'stlar bilan munosabatlardagi sovuqlikdir. Bu holat shaxsning atrofdagilarga nisbatan befarq, sust va masofali munosabatda bo'lishi bilan ifodalanadi.

Axborot olish, ta'lim, muloqot, ko'ngilochar xizmatlar, shaxsiy rivojlanish va kasbiy o'sishda internetdan foydalanish odatiy holga aylangan. Ammo internetdan foydalanishning ortiqcha darajaga yetishi ijtimoiy muammolarni yuzaga keltirmogda. Ayniqsa, insonning jamiyat bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqada bo'lishiga, ijtimoiy rollarni o'zlashtirishiga va o'zini jamiyat a'zosi sifatida anglashiga salbiy ta'sir qilmogda.

Shu bois, ijtimoiylashuv jarayoniga internetning salbiy ta'sirini kamaytirish zamonaviy psixologiya oldida turgan muhim muammolardan biri hisoblanadi. Ijtimoiylashuv – bu insonning jamiyatdagi turli rollarini egallashi, ijtimoiy me'yor va qadriyatlarni o'zlashtirishi, shuningdek, muloqot qilish ko'nikmalarini shakllantirishi orqali amalga oshadigan jarayondir. Ushbu jarayonning sog'lom kechishi shaxsiy barqarorlik, psixologik moslashuv va jamiyatga integratsiyalashuvda muhim ahamiyatga ega.

Ijtimoiylashuv jarayoniga internetning salbiy ta'sirini kamaytirish uchun psixologik yondashuv asosida tuzilgan muayyan usullardan foydalanish muhimdir. Quyida bunday samarali yondashuvlarning asosiy turlari keltirilgan:

Raqamli detoks (digital detox). Shaxs ma'lum vaqt davomida internet, ijtimoiy tarmoqlar, smartfonlardan foydalanishni cheklaydi yoki to'xtatadi. Bu orqali ongli ravishda real hayotga qaytish, emotsional barqarorlikni tiklash va real muloqotga bo'lgan ehtiyojni uyg'otish mumkin. Bunday cheklovlar vaqtincha bo'lishi mumkin (masalan, har kuni 2 soat "off time") yoki doimiy jadval asosida tashkil etiladi.

Shaxslararo muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish

- a) Maxsus psixologik treninglar yordamida:
- b) Faol tinglash,
- c) Emotsional javob qaytarish,
- d) O'z fikrini ochiq va samimiy ifoda etish,
- e) Konfliktlarni tinch yo'l bilan hal qilish ko'nikmalari rivojlantiriladi.

Bu shaxsning ijtimoiy muhitda faol va ishonchli ishtirokchiga aylanishiga xizmat qiladi.

Xulosa. Ijtimoiylashuv jarayonining to'laqonli amalga oshishi shaxsning psixologik barqarorligi va jamiyatda muvaffaqiyatli integratsiyasi uchun muhimdir. Internetdan ortiqcha foydalanish bu jarayonni buzishi mumkin, ayniqsa real muloqotning o'rnini virtual aloqa egallab olsa. Shu boisdan, bu ta'sirni kamaytirish uchun zamonaviy psixologik yondashuvlar zarur bo'ladi. Raqamli detoks, muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish, ijtimoiy faollikni rag'batlantirish, vaqtni boshqarish va ongli foydalanishni targ'ib qilish orqali internetning ijtimoiylashuvga salbiy ta'siri sezilarli darajada kamaytiriladi. Bu esa sog'lom, faol va moslashuvchan shaxslarning shakllanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Young, K. S. (1998). *Internet addiction: The emergence of a new clinical disorder*. *CyberPsychology & Behavior*, 1(3), 237–244.
2. Caplan, S. E. (2007). *Relations among loneliness, social anxiety, and problematic Internet use*. *CyberPsychology & Behavior*, 10(2), 234–242.

3. Kim, J. H., LaRose, R., & Peng, W. (2009). *Loneliness as the cause and the effect of problematic Internet use: The relationship between Internet use and psychological well-being*. *CyberPsychology & Behavior*, 12(4), 451–455.
4. Rodgers, R. F., & Tansey, R. (2012). *Social Adaptation among Adolescents*. *Journal of Youth Psychology*, 24(2), 102–117.
5. Kandell, J. J. (1998). *Internet addiction on campus: The vulnerability of college students*. *CyberPsychology & Behavior*, 1(1), 11–17.

QUTISIMON DETALLARNI “RDB” DASTGOHLARIDA TAYYORLASHNI NAZARIY TAHLILI VA TAKOMILLASHTIRISH

Abdisaidov Nodirbek Akmal o‘g‘li
Toshkent davlat transport universiteti
[*abdisaidovnodirbek@gmail.com*](mailto:abdisaidovnodirbek@gmail.com)

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы совершенствования технологии обработки коробчатых деталей на станках с ЧПУ (числовым программным управлением). Проанализированы пути получения высокоточной и эффективной обработки с использованием возможностей станков RDB. Приведены практические рекомендации по настройке станка, выбору режимов резания, типов инструментов и программированию. Особое внимание уделено технологической последовательности и точности обработки сложных коробчатых форм.

Ключевые слова: Станки с ЧПУ, коробчатые детали, технологическая последовательность, точность, обработка.

Annotasiya: Ushbu maqolada qutisimon (korobkali) detallarni RDB (raqamli dastur boshqaruvli) dastgohlarida ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish masalalari ko‘rib chiqiladi. RDB dastgohlarining imkoniyatlaridan foydalanib, yuqori aniqlikdagi, samarador va sifatli detallarni olish yo‘llari tahlil qilinadi. Dastgoh sozlash jarayoni, ishlov berish parametrlarini tanlash, kesuvchi asboblarning turlari va texnologik rejimlarni optimallashtirish masalalari asosida amaliy tavsiyalar berilgan. Qutisimon detallar geometrik murakkablikka ega bo‘lganligi sababli, ularni qayta ishlashda texnologik ketma-ketlik va dasturlash aniqligiga alohida e‘tibor qaratiladi.

Kalit so‘zlar: Raqamli dastur boshqaruvi, qutisimon detallar, texnologik ketma-ketlik, aniqlik, ishlov berish.

Abstract: This article discusses the improvement methods of manufacturing box-shaped parts using CNC (Computer Numerical Control) machines. It analyzes ways to achieve high-precision and efficient production through the use of RDB machines. Practical recommendations are provided based on optimization of machining parameters, tool selection, machine setup, and programming accuracy. Special attention is paid to the technological sequence required for processing complex geometrical shapes of box-type parts.

Keywords: CNC machines, box-shaped parts, technological sequence, accuracy, machining process.

Kirish

Mashinasozlik sanoatining rivojlanishi bilan bir qatorda, murakkab shakldagi detallarni yuqori aniqlikda, qisqa muddatda va past tannarxda tayyorlash talablari ham ortib bormoqda. Ayniqsa, qutisimon (korobkali) detallar konstruktiv jihatdan ko‘p yuzali, ichi bo‘sh, murakkab shakldagi qismlar bo‘lib, mexanizmlarning asosi sifatida keng qo‘llaniladi. Ular ko‘p hollarda dvigatellar, reduktorlar, nasoslar va gidravlik bloklar korpuslari sifatida xizmat qiladi. Mazkur detallarni an’anaviy dastgoh uskunalarda ishlov berish katta mehnat va vaqt talab qiladi, shuningdek aniqlik va sifat ko‘rsatkichlari ham doimiy kafolatlanmaydi.

Shu bois, ushbu muammoning samarali yechimi sifatida raqamli dastur boshqaruvli (RDB, ya’ni CNC) dastgohlarni qo‘llash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. RDB dastgohlar yordamida ishlov berish texnologiyasi ishlab chiqarish jarayonini avtomatlashtirish, inson omilini kamaytirish va ishlab chiqarish sifatini barqaror saqlash imkonini beradi. Aynan qutisimon detallar kabi murakkab konstruksiyali mahsulotlarga ishlov berishda RDB dastgohlarining ahamiyati yanada ortadi.

Prezidentning sanoat modernizatsiyasi va raqamli texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha qabul qilgan qarorlari (xususan, 2020-yildagi PK-4427-sonli qarori) asosida yurtimiz sanoat korxonalarida ilg‘or texnologiyalar, jumladan, CNC dastgohlari faol joriy etilmoqda. Biroq, bu dastgohlardan maksimal samaradorlikda foydalanish uchun detallarning konstruktiv xususiyatlarini inobatga olgan holda, texnologik jarayonlarni chuqur tahlil qilish va doimiy takomillashtirib borish talab etiladi.

Shu nuqtai nazardan, ushbu maqolada qutisimon detallarni RDB dastgohlarida ishlab chiqarish jarayonini takomillashtirish bo‘yicha metodik yondashuvlar, texnologik ketma-ketlikni to‘g‘ri tashkil etish, ishlov berish rejimlarini optimallashtirish va kesuvchi asboblarni tanlashga oid masalalar ilmiy-nazariy asosda tahlil qilinadi. Maqola natijalari asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bo‘yicha xulosalar beriladi.

Nazariy asos

Qutisimon detallar mashinasozlikda turli xil mexanik, gidravlik va energetik tizimlar uchun tayyorlanadigan asosiy elementlardan biri bo‘lib, ular asosan dvigatel, reduktor, nasos, kompressor, gidravlik blok kabi murakkab texnologik qurilmalar tarkibida uchraydi. Ushbu detallarni ishlab chiqarishda yuqori aniqlik, o‘lcham barqarorligi, sirt tozaligi va texnologik ketma-ketlikning to‘g‘ri tashkil etilishi muhim ahamiyatga ega. An’anaviy usullar yordamida ushbu detallarni ishlab chiqarishda ko‘p vaqt va mehnat sarflanishi, texnologik jarayonlarda inson omiliga bog‘liqlik, nuqsonlar sonining ortishi kabi kamchiliklar kuzatiladi. Bunday muammolarni bartaraf etish uchun zamonaviy texnologik echimlardan biri bu — raqamli dastur boshqaruvli (RDB)

dastgohlar hisoblanadi. CNC dastgohlarining asosiy afzalligi shundaki, ular dasturiy boshqaruv asosida ishlaydi va aniqlik, takrorlanuvchanlik, samaradorlik hamda resurs tejash imkoniyatlarini taqdim etadi.

RDB dastgohlar CAM (Computer-Aided Manufacturing) tizimlari bilan integratsiyalashgan holda ishlaydi. Ushbu tizimlarda oldindan yaratilgan 3D modelga asoslangan holda avtomatik tarzda kesish traektoriyasi va ishlov berish parametrlarini belgilovchi NC-kodlar tuziladi. Bu esa murakkab shakldagi (ayniqsa, qutisimon) detallarni yuqori aniqlikda va minimal xatolik bilan qayta ishlash imkonini beradi.

Shuningdek, kesuvchi asboblarning tanlovi, ishlov berish rejimlari (tezlik, ozuqa, chuqurlik), silliqlik darajasi, termik deformatsiyalarni hisobga olish kabi ko'plab omillar ishlab chiqarish sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Qutisimon detallar ichki va tashqi sirtlarining murakkab shakli tufayli ko'p bosqichli ishlov berishni talab qiladi: frezalash, burg'ulash, ichki va tashqi parmalash, silliqlash va yakuniy nazorat bosqichlarida aniqlik yuqori bo'lishi lozim.

Ilmiy manbalarda (Rasulov M., 2020; Abdurahmonov I., 2021) qayd etilishicha, CNC dastgohlarida qutisimon detallarni qayta ishlashda dastlabki tayyorlov bosqichi, dasturlashning to'g'riligini ta'minlash, optimal texnologik ketma-ketlikni ishlab chiqish va ishlov berish parametrlarini moslashtirish — samarali ishlab chiqarishning muhim shartlaridandir.

Shuningdek, aniqlikni ta'minlashda dastgoh sozlamalari (kalibrovka), o'lchash asboblarning aniqligi va ishlab chiqarish muhitining harorat sharoiti ham hisobga olinishi kerak. Aynan shu omillar yig'indisi sifatli, aniq va ishonchli qutisimon detallarni ishlab chiqarishga zamin yaratadi.

Tadqiqot natijalari yoki amaliy tahlil

Amaliy tadqiqotlar Toshkent shahridagi mashinasozlik korxonasida joylashgan "HAAS VF-4" markali vertikal RDB dastgohda olib borildi. Tajriba uchun alyuminiy va 45-markali konstrukcion po'latdan yasalgan ikki turdagi qutisimon detallar tanlandi. Detaillar quyidagi o'lchamlarga ega edi: 250×200×150 mm. CAM dasturi yordamida 3D modelga asoslangan NC-kodlar ishlab chiqildi va quyidagi ishlov berish ketma-ketligi tanlandi:

Yuzalash va tekislash

Tashqi konturlarni frezalash

Ichki bo'shliqlarni frezalash va burg'ulash

Teshiklarni kengaytirish va parmalash

So'nggi silliqlash va yakuniy nazorat

Natijalar quyidagicha bo'ldi:

Sirt silliqligi: **Ra = 1.0–1.2 mkm**

O'lcham aniqligi: ± 0.01 mm

Ishlov berish vaqti an'anaviy dastgohlarga nisbatan **30–40% qisqardi**

Detalga ishlov berish paytida asbobning isish darajasi $15–18^{\circ}\text{C}$ ni tashkil qildi (stabil holat)

CAM dasturida o'zgartirilgan traektoriya orqali asboblarning almashinuvi soni 5 ta kam bo'ldi

Ushbu dalillar RDB dastgohlari orqali ishlov berishda yuqori samaradorlik va aniqlikka erishish mumkinligini ko'rsatdi.

Tahlil

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, qutisimon detallarni ishlab chiqarishda ishlov berish jarayonini avtomatlashtirish, aniq rejalashtirish va optimallashtirish muhim rol o'ynaydi. CAM tizimida tayyorlangan NC-kodlar asbob harakatlarining silliq, doimiy va zararsiz bajarilishini ta'minlaydi.

Bundan tashqari, tajriba jarayonida aniqlikning yuqori darajada saqlanishi kesuvchi asboblarning to'g'ri tanlangani, ishlov berish parametrlarining optimal holatga keltirilgani va termik deformatsiyalarning minimalligi bilan bog'liqdir. An'anaviy dastgohlarda esa detallarni qayta ishlashda asosan operator malakasi va ko'z bilan baholashga asoslangan nazorat usullari mavjud bo'lib, bu ishlab chiqarishda noaniqliklar va xatoliklar ehtimolini oshiradi.

RDB dastgohlarining afzalliklaridan biri — takrorlanuvchanlikdir. Har bir detalga bir xil sifatda ishlov berilishi mahsulot sifatining barqarorligini ta'minlaydi. Bu, ayniqsa, eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishda muhim ahamiyatga ega.

Asosiy xulosa

Yuqoridagi tahlillar asosida qutisimon detallarni RDB dastgohlarida tayyorlash quyidagi afzalliklarga ega ekanligi isbotlandi:

Ishlab chiqarish aniqligi oshadi: ± 0.01 mm gacha

Sirt sifatini nazorat qilish osonlashadi: $Ra \leq 1.2$ mkm

Ishlab chiqarish jarayoni avtomatlashtiriladi va inson omili kamayadi

Detalga ishlov berish vaqti qisqaradi

CAM tizimlarida dasturlash orqali tajribali operatorga ehtiyoj kamayadi

Nuqsonlar soni keskin kamayadi

Muallif taklifi

Muallif tomonidan taklif etilgan yondashuv — bu **qutisimon detallarni ishlov berishda asboblarning traektoriyasini CAM dasturida optimallashtirish, ish tartibini modellashtirish va ishlov berish bosqichlarini avtomatik tahlil asosida sozlash** hisoblanadi.

Shuningdek, quyidagi usullar taklif etiladi:

Detal modellari asosida ilg'or "Adaptive Clearing" strategiyasidan foydalanish
Asboblari o'zgarish sonini minimallashtirish orqali ish siklini qisqartirish
Dastgohga integratsiyalashgan onlayn o'lchov tizimi (touch probe) orqali real vaqtda nazorat o'rnatish

Mazkur yondashuvlar RDB dastgohlardan maksimal samarali foydalanish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda Qutisimon detallarni "RDB" dastgohlarida tayyorlash bo'yicha olib borilgan ilmiy-nazariy va amaliy tahlillar shuni ko'rsatadiki, raqamli dastur boshqaruvli texnologiyalardan foydalanish nafaqat ishlab chiqarish jarayonining sifatini oshiradi, balki texnologik resurslardan samarali foydalanish, inson omilining ta'sirini kamaytirish, mahsulot tannarxini pasaytirish va ishlab chiqarish jarayonini avtomatlashtirishda muhim o'rin tutadi.

RDB dastgohlarining imkoniyatlari qutisimon murakkab detallarni ishlab chiqarishda ayniqsa samarali ekanligi amaliy tajribalar orqali isbotlandi. Frezalash, burg'ulash, ichki bo'shliqlarga ishlov berish, silliqlash va parmalash kabi texnologik operatsiyalar yuqori aniqlikda, minimal xatolik bilan va takrorlanuvchi sifatda bajarildi. CAM tizimlari asosida oldindan modellashtirilgan ishlov berish traektoriyalari, kesuvchi asboblari tanlovining optimallashtirilishi, termik deformatsiyalarning oldini olish — bularning barchasi sifatni oshirishning asosiy omillari bo'ldi.

Maqolada ta'kidlanganidek, CNC dastgohlaridan to'g'ri foydalanish uchun operatorlarning malakasi, dasturlash bilimlari va texnologik jarayonlarni chuqur tushinishi talab etiladi. Shu bois, bu texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etish bilan birga, kadrlar tayyorlash, amaliyotga yo'naltirilgan o'quv kurslari, CAM/CAD tizimlaridan foydalanish ko'nikmalarini kengaytirish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Umuman olganda, qutisimon detallarni RDB dastgohlarda tayyorlashni takomillashtirish orqali quyidagi natijalarga erishish mumkin:

Detal sifati va aniqligini oshirish;

Ishlab chiqarish jarayonini tezlashtirish va mehnat unumdorligini ko'paytirish;

Material va vaqt resurslarini tejash;

Sifat nazoratini raqamli asosda tashkil etish;

Mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish va eksport imkoniyatlarini kengaytirish.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, RDB dastgohlarida ishlov berish texnologiyasini doimiy takomillashtirish, zamonaviy CAM tizimlari bilan integratsiyani kuchaytirish va har bir detalga individual yondashuvni joriy etish mashinasozlik sanoatining raqamli transformatsiyasida muhim strategik yo'nalish hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Rasulov M. – *Stanoklar va dastgohsozlik asoslari*. Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2020.
2. Abdurahmonov I. – *Raqamli boshqaruvli dastgohlar (RBD) texnologiyasi*. Samarqand: SamDU, 2021.
3. Xoliqov A. – *Mashinasozlikda zamonaviy ishlov berish usullari*. Toshkent: “Ilm ziyo”, 2022.
4. Norqulov A. – *CAM tizimlarida avtomatik dasturlash asoslari*. Farg‘ona: FPI nashriyoti, 2023.
5. Egamberdiyev M. – *CNC texnologiyasining nazariy va amaliy asoslari*. Andijon: ATI, 2021.
6. G‘ulomov A. – *Detallar texnologiyasi va ishlov berish ketma-ketligi*. Toshkent: “O‘qituvchi”, 2020.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-avgustdagi PQ–4427-sonli qarori.

TEXNIKA OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TALABALARNING KASBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK ASOSLARI

Erimmetova Nafisa Bahramovna

Al-Xorazmiy universiteti Xalqaro hamkorlik bo'limi bosh mutaxassisi

Annotatsiya Texnik oliy ta'lim muassasalari hozirgi globallashtirilgan jamiyatda faqat ta'lim va ilmiy-tadqiqot bilan cheklanib qolmasdan, o'z faoliyatini “uchinchi missiya” – ya'ni jamiyatga xizmat qilish, innovatsion va ijtimoiy taraqqiyotda ishtirok etishga qaratmoqda. Bunday transformatsiya sharoitida talabalar nafaqat nazariy bilimga ega, balki amaliy, kommunikativ va reflektiv kompetensiyalarga ega bo'lishi lozim. Ushbu maqolada texnik universitetlarda kasbiy kompetensiyani shakllantirishning pedagogik va psixologik jihatlari o'rganilib, zamonaviy yondashuvlar tahlil qilinadi. Empirik va nazariy manbalarga asoslangan holda integratsiyalashgan model taqdim etiladi.

Kalit so'zlar: texnik ta'lim, kasbiy kompetensiya, uchinchi missiya, psixologik rivojlanish, faol o'qitish, universitet transformatsiyasi

1. Kirish

So'nggi yillarda oliy ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, zamon talablariga mos ravishda transformatsiya qilish jarayoni jadal amalga oshirilmoqda. Universitetlarning an'anaviy vazifalari — ya'ni ta'lim berish va ilmiy izlanishlar olib borish — hozirda yana bir yo'nalish, ya'ni “uchinchi missiya” bilan kengaytirilmoqda. AQSh, Yevropa davlatlarining top universitetlarida bu missiya universitetlarni jamiyat taraqqiyotida bevosita ishtirok etuvchi subyektga aylantirdi. Ushbu universitetlar talabalarni nafaqat bilim va ilmiy izlanishlarga, balki jamiyatga foydasi tegadigan iqtisodiy-ijtimoiy loyihalarni amalga oshirish, boshqarish ko'nikmalariga ham o'rgata boshladi. Prezident Shavkat Mirziyoev raisligida 2024-yil 20 iyun kuni muhandislik sohalarida kadrlar tayyorlash va oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish masalalari yuzasidan videoselektor yig'ilishida mamkatimizda faoliyat olib borayotgan texnika universitetlari tahlil qilinganda, “oliy ta'lim muassasalari fundamental tadqiqotlar o'tkazish bilan cheklangan, iqtisodiyot uchun amaliy ishlanmalar juda kam”ligi qayd etildi (<https://president.uz/uz/lists/view/7333>). Shuni inobatga olgan holda, O'zbekiston oliy ta'lim tashkilotlari o'quv dasturlariga “uchinchi missiya” malaka va ko'nikmalarini kengroq joriy qilish lozim. Texnik universitetlarda bu vazifa juda muhim rol o'ynaydi, chunki ular muhandislar, texnologlar, dasturchilar kabi

jamiyat rivojida strategik ahamiyat kasb etuvchi mutaxassislarni tayyorlaydi. Shu sababli, talabalarda kasbiy kompetensiyani shakllantirish nafaqat bilim berish bilan cheklanmasligi, balki psixologik tayyorgarlik, ijodiy fikrlash va ijtimoiy ongning rivojlantirishini ham qamrab olishi lozim (Makhashova et al., 2016).

2. Metodlar

Ushbu maqola nazariy xarakterga ega bo'lib, mavzuga oid ilgari chop etilgan ilmiy adabiyotlar, monografiyalar, maqolalar va amaliy hisobotlar tahliliga asoslangan. Maqolada taqqoslash (komparativ) va SWOT tahlil uslublari qo'llanilgan. Asosiy e'tibor mavzuga oid turli yondashuvlar va nazariy konsepsiyalarni o'rganish, ularni o'zaro solishtirish, ustuvor jihatlarini aniqlash hamda muammoga yangi nazariy qarashlarni taklif etishga qaratildi. Adabiyotlar ingliz, rus va o'zbek tillaridagi ilmiy manbalarni o'z ichiga oladi, ularning tanlanishi mavzuga dolzarbligi va ilmiy baholanganligiga qarab amalga oshirildi.

3. Adabiyotlar tahlili

Hozirgi kunda ko'plab olimlar tomonidan texnika yo'nalishidagi talabalarda kasbiy kompetensiyani shakllantirishning pedagogik-psixologik jihatlarini umumiy va ma'lum turlarlarga ajratilgan holda tadqiq qilingan. Bu mavzuning dolzarbligi jihatidan o'rganilganda mamlakatimizda universitetlar, sanoat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarning juda sust darajada ekanligi, mehnat bozori talablari va yetishib chiqayotgan kadrlarning kasbiy kompetensiyasidagi tafovutlar mavjudligi aniqlandi. Kasbiy kompetensiya malaka va ko'nikmalari kengayib bormoqda. Zaitseva va boshq.ning (2017) ta'kidlashicha, Kasbiy kompetensiya, shaxsning professional faoliyatda muammoli vaziyatlarni hal qilishga, mustaqil qarorlar qabul qilishga va doimiy o'z-o'zini rivojlantirishga qaratilgan integrallashgan sifatlardan iboratdir. Zaitseva et al. (2017) tomonidan taqdim etilgan model texnik universitetlarda kasbiy tayyorgarlikni strategik rejalashtirishga asoslangan. Modelda ta'lim mazmuni ish beruvchilarning amaliy talablariga moslashtiriladi, va bu orqali o'quvchi mutaxassislikka mos kompetensiyalarni shakllantiradi. Trubitsyn va boshq. (2023) zamonaviy mutaxassisning asosiy kasbiy sifatlari sifatida Universallashtirilgan va moslashuvchan kompetensiyalarni shakllantirish modelini joriy qilishni taklif qilgan holda stressga bardoshlilik va emotsional kompetentlik, loyihaviy fikrlash uslubi, o'zini rivojlantirishga bo'lgan qobiliyat o'quv mashg'ulotlaridagi nazariy bilim berish bilan birga shakllantirilishi lozimligini qayd etadi. Maulana, Muhammad & Dewi, Silvi & Maryam, Siti. (2024) ilmiy fikriga ko'ra, qattiq ko'nikmalar, yumshoq ko'nikmalar va o'z-o'ziga ishonch har biri alohida va birgalikda inson resurslari sifatiga ijobiy va sezilarli ta'sir ko'rsatadi, bu esa universitetlarda inson kapitalini rivojlantirishda kompleks inson resurslarini rivojlantirish yondashuvining muhimligini

ta'kidlaydi. Issakova (2021) texnika universitetlari talabalarining kasbiy kompetensiyasini oshirishda tizimli yondashuv muhimligini, ta'lim metodlari va ilmiy tafakkurni o'zgartirib, murakkab tizimlarni tushunish va qurishda maqsadga yo'naltirilgan, yaxlit va moslashuvchan strategiyalarni ta'kidlaydi. Makhshova et al. (2016) tadqiqotida esa kasbiy kompetensiyani shakllantirishda motivatsiya, refleksiya va shaxsiy salohiyat muhim omillar sifatida ko'riladi. Ularning yondashuvida, ayniqsa, mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvlar texnik yo'nalishdagi talabalarda samarali natijalarni beradi. Omarova et al. (2016) "uchinchi missiya" konsepsiyasini pedagogik modelga integratsiyalab, universitetlarning ijtimoiy hamkorlik, tadbirkorlik va innovatsion loyihalardagi faol ishtirokini kuchaytirishni tavsiya qiladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, bunday integratsiya nafaqat kompetensiyani oshiradi, balki talabalarda fuqarolik mas'uliyatini shakllantiradi.

Mazkur tadqiqotlarda ishlatilgan empirik ma'lumotlar, diagnostik natijalar va metodologik konsepsiyalar kontekstida texnik universitetlar uchun moslashtirilgan integratsiyalashgan yondashuv ishlab chiqildi. Tahlil davomida quyidagi komponentlar alohida o'rganildi: kasbiy kompetensiyaning mohiyati va tarkibi, o'quv jarayoniga integratsiyalashgan metodlar, psixologik sharoitlar, ijtimoiy mas'uliyat va "uchinchi missiya" tamoyillari.

4. Natijalar

Tahlil qilingan ilmiy manbalar asosida texnik oliy ta'lim muassasalarida talabalar kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish uchun quyidagi asosiy natijalar aniqlandi:

Kasbiy kompetensiyaning integrallashgan modeli ishlab chiqildi. Bu modelda nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy ko'nikmalar, kommunikativ malakalar va reflektiv fikrlash muhim komponent sifatida qaraladi. Model mehnat bozori ehtiyojlariga moslashtirilgan bo'lib, ish beruvchilarning talablarini inobatga olgan holda tuzilgan.

Universitetlarning faqat ta'lim va ilmiy tadqiqotlar bilan cheklanib qolmasdan, balki jamiyatga xizmat ko'rsatish, turli ijtimoiy hamda innovatsion tashabbuslarda ishtirok etishi "uchinchi missiya" kompetensiyalarining dolzarbligini ko'rsatadi. Bu kabi faoliyatlar orqali talabalar ijtimoiy ongli, fuqarolik mas'uliyatiga ega va tashabbuskor shaxs sifatida shakllanadi. Pedagogik va psixologik omillarning uyg'unlashgan holda qo'llanilishi bu jarayonda muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, talabalarni kasbiy kompetensiyalarga tayyorlashda ularning motivatsiyasini oshirish, reflektiv fikrlashni rivojlantirish hamda shaxsiy salohiyatini to'liq namoyon etishga sharoit yaratish lozimligi asoslab berilgan. Universallashtirilgan va moslashuvchan kompetensiyalarni shakllantirish zarurligi ta'kidlandi. Stressga bardoshlilik, emotsional barqarorlik, loyihaviy fikrlash va doimiy o'z-o'zini rivojlantirish kabi zamonaviy ko'nikmalar o'quv jarayoniga bosqichma-bosqich kiritilishi lozim.

O‘zbekiston texnik oliy ta’lim tizimida “uchinchi missiya” elementlarini keng joriy qilish talabi mavjud. Hukumat darajasida bu boradagi chaqiriqlar mavjud bo‘lib, texnik universitetlarning iqtisodiy-ijtimoiy innovatsiyalardagi ishtirokini kuchaytirishga qaratilgan strategiyalar ishlab chiqilishi kerak.

Kasbiy kompetensiyaning integrallashgan modelining kuchli va zaif tomonlari SWOT tahlil qilindi va quyidagi jadvalda ifodalangan:

Kasbiy kompetensiyaning integrallashgan modelini SWOT tahlili

Kuchli tomonlar (S)	Zaif tomonlar (W)
– Kasbiy kompetensiyaning integrallashgan modeli ishlab chiqilgan.	– “Uchinchi missiya” faoliyatlarining institutsional mexanizmlari yetarli emas.
– Model mehnat bozori ehtiyojlariga moslashtirilgan.	– O‘qituvchilarning zamonaviy kompetensiyalarni o‘rgatishdagi tayyorgarligi past.
– “Uchinchi missiya” kompetensiyalari talabalarda ijtimoiy ong va fuqarolik mas’uliyatini shakllantiradi.	– Nazariya va amaliyot o‘rtasidagi uzviylik ba’zan sust kechadi.
– Pedagogik va psixologik integratsiyalashgan yondashuv mavjud.	– Infratuzilma va texnik baza yetarli emas.
– Moslashuvchan, zamonaviy ko‘nikmalar (stressga bardoshlilik, emotsional barqarorlik) rivojlantirilmoqda.	– Amaliy mashg‘ulotlar uchun zamonaviy uskunalarning cheklanganligi.
Imkoniyatlar (O)	Tahdidlar (T)
– Davlat darajasida “uchinchi missiya”ni qo‘llab-quvvatlovchi strategik chaqiriqlar mavjud.	– Texnologik o‘zgarishlar mavjud kompetensiyalarni tez eskirtirishi mumkin.
– Ijtimoiy-innovatsion loyihalarda ishtirok etish imkoniyati mavjud.	– Ta’lim tizimidagi byurokratik to‘siqlar tashabbuslarni cheklaydi.
– Raqamli texnologiyalar va onlayn ta’lim resurslari imkoniyatlari kengaymoqda.	– Moliyaviy va insoniy resurslarning cheklanganligi.
– Xalqaro grantlar va hamkorliklar orqali ilg‘or tajribalarni joriy etish imkoniyati mavjud.	– Yangi yondashuvlarga o‘qituvchi va talabalar tomonidan passiv munosabat.

5. Muhokama

Ushbu tadqiqot natijalari texnik oliy ta'lim muassasalarida kasbiy kompetensiyani rivojlantirishda kompleks, tizimli va integratsiyalashgan yondashuvning zarurligini ko'rsatadi. Ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, zamonaviy talabalar faqat texnik bilim bilan cheklanmasdan, balki psixologik tayyorgarlik, kommunikatsiya, refleksiya va ijodiy fikrlash kabi ko'nikmalarni ham egallashlari lozim. Bu esa ularning mehnat bozori talablariga moslashuvchan, ijtimoiy faol va innovatsion fikrlovchi mutaxassis sifatida shakllanishini ta'minlaydi.

“Uchinchi missiya” konsepsiyasining texnik ta'lim sohasiga qo'shilishi nafaqat o'quv dasturlarini yanada boyitadi, balki universitetlarning jamiyatdagi faol rolini kuchaytirishga xizmat qiladi. Universitetlarning faqat ilm va ta'limga emas, balki ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlarga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi institutga aylanishi – barqaror taraqqiyotning asosi sifatida qaralmoqda. Bu esa o'z navbatida, talabalarni jamiyatga xizmat qilish, mas'uliyatli qarorlar qabul qilish va liderlik qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik strategiyalarni ishlab chiqishni talab qiladi.

Tadqiqotda taklif etilgan integratsiyalashgan model texnik universitetlarda ta'lim jarayonini amaliy tajribaga yaqinlashtirish, ish beruvchilar bilan hamkorlikni mustahkamlash hamda zamonaviy pedagogik usullarni joriy etish zaruratini ta'kidlaydi. Shuningdek, refleksiya, motivatsiya va shaxsiy salohiyatni rivojlantirish orqali kasbiy kompetensiyaning chuqurroq shakllanishiga erishish mumkinligi aniqlangan.

Bundan tashqari, stressga bardoshlilik, emotsional intellekt, loyihaviy fikrlash kabi ko'nikmalarni rivojlantirish texnik yo'nalishlardagi talabalar uchun dolzarb bo'lib bormoqda. Bu jihatlarda ko'p holatlarda an'anaviy texnik ta'lim modelida e'tibordan chetda qoladi. Shunday ekan, bu ko'nikmalarni sistematik ravishda o'quv jarayoniga kiritish lozim.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, texnik oliy ta'lim muassasalarining transformatsiyasi yagona yo'nalishda emas, balki ko'p yo'nalishli va moslashuvchan strategiyalar asosida olib borilishi lozim. Bu, o'z navbatida, o'quv dasturlari, o'qituvchilar malakasi, infratuzilma va tashkiliy madaniyatda ham muhim o'zgarishlarni talab etadi.

Integratsiyalashgan modelni amalga oshirish quyidagi ketma-ket bosqichlarni o'z ichiga oladi:

Birinchi bosqichda talabalarning kasbiy yo'nalishdagi motivatsiyasi aniqlanadi va mustahkamlanadi. Bu bosqichda shaxsiy maqsadlar va kasbiy identifikatsiya shakllanadi.

Ikkinchi bosqichda nazariy bilimlar va amaliy mashg'ulotlar orqali texnik kompetensiyalar chuqurlashtiriladi. Bu davrda muhandislik, dasturlash va boshqa ixtisosliklarga oid asosiy tushunchalar o'zlashtiriladi.

Uchinchi bosqich transformatsiya bosqichi bo'lib, bunda talabalar real sanoat muammolarini hal qilishga qaratilgan loyihalarda ishtirok etadi. Bu bosqichda loyiha asosidagi ta'lim, amaliy laboratoriyalar va startap faoliyatlari kuchaytiriladi.

To'rtinchi bosqich ijtimoiylashtirish bosqichi bo'lib, unda "uchinchi missiya" amaliyotga tatbiq etiladi: talabalar ijtimoiy innovatsiyalar, jamoaviy tadbirlar, texnoparklar va hamkorlikdagi loyihalar orqali jamiyatga hissa qo'shadi.

Mazkur model asosida talabaning nafaqat kasbiy tayyorgarligi, balki shaxsiy, ijtimoiy va reflektiv rivojlanishi ham ta'minlanadi.

5. Xulosa

Texnik oliy ta'lim muassasalarida talabalarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish uchun ta'lim jarayonini multidisiplinar va integratsiyalashgan yondashuv asosida tashkil etish lozim. Universitetlar endilikda faqat bilim beruvchi emas, balki innovatsiya va jamiyat bilan bevosita ishlovchi ijtimoiy institut sifatida qaralmoqda. "Uchinchi missiya" konsepsiyasi talabaning kasbiy rivojlanishini ijtimoiy faollik bilan uyg'unlashtirib, uni jamiyatdagi o'zgarishlarning faol ishtirokchisiga aylantiradi.

Adabiyotlar

1. Makhshova, P., Meirmanov, A., Zhunusbekov, Zh., Makasheva, O., Mirzaliyeva, E., & Ermuratova, A. (2016). On the Development of Professional Competence in Students of Creative Pedagogical Specialties. *International Journal of Environmental & Science Education*, 11(11), 4660–4668.
2. Omarova, Y. B., Toktarbayev, D. G.-S., Rybina, I. V., Saliyeva, A. Zh., Zhumabekova, F. N., Hamzina, Sh., Baitlessova, N., & Sakenov, J. (2016). Methods of Forming Professional Competence of Students as Future Teachers. *International Journal of Environmental & Science Education*, 11(14), 6651–6662.
3. Zaitseva, N. A., Larionova, A. A., Mikhailova, M. V., & Prontsev, K. G. (2017). Development of a Strategic Model for the Formation of Professional Competencies of University Students. *Eurasian Journal of Analytical Chemistry*, 12(7b), 1541–1548.
4. Trubitsyn, D. V., et al. (2023). "Development of professional competencies of students of a technical university: from identification to implementation." *Vestnik of Samara State Technical University. Series: Psychological and Pedagogical Sciences*.
5. Maulana, Muhammad & Dewi, Silvi & Maryam, Siti. (2024). Analysis of the Effect of Hard Skills, Soft Skills and Self Efficacy on the Quality of Human Resources in Universities in Region 3 Cirebon. *International Journal of Business, Economics, and Social Development*. 5. 209-218. 10.46336/ijbesd.v5i2.636.
6. Issakova, G., Kaltayeva, G., Bakhtiyarova, G., Ibrayeva, K., & Kudaibergenova, S. (2021). Formation of Professional Competence of University Students Based on a Systematic Approach. *International Journal of Emerging Technologies in Learning (iJET)*, 16(10), pp. 163–178. <https://doi.org/10.3991/ijet.v16i10.19347>

МЕТАБОЛИК СИНДРОМ БЎЛГАН НАФАҚА ЁШИДАГИ БЕМОРЛАРДА ЎН ИККИ БАРМОҚ ЯРА КАСАЛЛИГИНИНГ МОРФОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ ВА УЧРАШ ЧАСТОТАСИ

**Каримов Расулбек Хасанович^{1.}, Мусаева Ирода Мансурбековна^{2.}, Ражапов
Адилбек Анварбекович^{3.}**

Тошкент тиббиёт академияси Урганч филиали “Патоморфология” кафедраси
доценти^{1.}

Хоразм вилоят қон қуйиш маркази бўлим мудир^{2.}

Тошкент тиббиёт академияси Урганч филиали “Патоморфология” кафедраси
доцент в.в.б. ^{3.}

Мавзунинг долзарблиги: Сўнги йилларда юртимизда иқлимнинг кескин ўзгариши натижасида инсон организмидаги айрим касалликлар юзага чиқиши кескин кузатилмоқда. Натижада ёши катта нафақа ёшидаги беморларда бошқа касалликларга қараган 12 бармоқ ичак касаллиги суранкали ва ўткир тарзда учраши яққол кўринмоқда. Бунинг натижасида ёши катта беморларимиз бошқа касалликларга қараганда хамрох касаллик сифатида 12 бармоқ яра касаллигини хам даво-муолажалар орқали даволаш ишларини олиб боришмоқда.

Ишнинг мақсади: ишнинг мақсади сифатида метаболик синдром бўлган ёши катта нафақа ёшдаги беморларнинг 12 бармоқ ичакда патологик ўзгаришларини аниқлаш мақсад қилиб олинган.

Олинган натижалар: олиб борилган илмий изланишлар доирасида метаболик синдромга учраган беморларнинг аксарияти нафақа ёшдаги аёллар 60-70% ни ташкил этди ва касаллик сифатида бошқа сурункали касалликларга қараган 12 бармоқ ичак яра касаллиги борлиги аниқланди.

Изланишлар давомида патологик анатомия бюросига олиб келинган 12 бармоқ ичак яра касаллигининг макропрепаратлари гисталогик текширилганда кўпинча гистопрепаратларда шиллик қаватининг бутунлигини бузиллиши сурункали гипоксияси мавжудлиги аниқланди. Шунингдек, беморларнинг кўпчилигида амалиёт жараёнларида хамрох касаллик сифатида ошқозон гастрити борлиги аниқланди.

Хулосалар: хулоса ўрнида шуни айтиш мумкинки, аёлларда кўп учраган 12 бармоқ ичак яра касаллигининг асоратланган ярадан ошқозоннинг пиёзча, антрал, танасида, кичик эгрилигида, кардиал қисмида яра борлиги аниқланди.

Фойдаланилган адабиётлар:

A significant mediator is also TNF- α ($r=0.682$; $p<0.001$), associated with severe forms of systemic destabilization, including SS. IFN- γ showed a moderate positive correlation ($r=0.489$; $p=0.003$): its growth accompanied the aggravation of the condition, but remained below the levels of IL-6 and TNF- α , indicating an imbalance of effector and regulatory links.

In the course of the study, based on a set of identified immunological markers, clinical characteristics, as well as calculated logistic regression coefficients and ROC analysis data, an original clinical and immunological scale "IPORP" (Immunological Prediction of Risk in Peritonitis) was developed. This tool is designed to assess the likelihood of complicated course of widespread peritonitis and is based on a multi-level scoring

system. The scale structure included nine indicators, each of which was confirmed not only for statistical significance but also for pathophysiological validity. The threshold values determined using ROC analysis allowed us to establish risk stratification intervals. For quantitative variables, including the level of CD4+ T-lymphocytes, NK cell activity, concentrations of interleukins IL-6 and IL-10, the level of IgM and circulating immune complexes (CIC), ranges corresponding to clinically significant boundaries were identified. Qualitative parameters, such as the stage of peritonitis, the nature of the exudate in the abdominal cavity and the presence of a prolonged systemic inflammatory response (SIRS), were assessed by fixed values.

The final scale is presented as a table containing 9 rows with a description of the variables and 4 columns corresponding to the risk levels. The maximum possible total score is 45, which creates a wide and convenient range for individual stratification of patients and prediction of their outcomes. Based on the total number of points scored, patients were divided into three levels of risk of developing an unfavorable course. The first category included individuals with low risk (≤ 9 points), which reflected only minimal deviations in immunological parameters without signs of systemic dysfunction. The second group included patients with high risk (10-19 points), who had moderate manifestations of immunosuppression in combination with activation of the cytokine cascade. The most severe, critical category (≥ 20 points) was characterized by severe immunosuppression, hypercytokinemia and clinical signs of the terminal stage of generalized peritonitis. A comparative analysis showed that the proposed IPORP model allowed us to correctly predict complicated disease progression in 47 patients, which was 57.3%. At the same time, 7 false-positive cases (14.3%) were recorded, when patients with a favorable outcome were mistakenly included in the high-risk group. There were 11 true negative results (26.2%), and the number of false-negative ones reached 35 (42.7%). The latter fact indicates that almost half of the patients who developed complications showed signs of immunosuppression and cytokine destabilization only in a weak form or became obvious only at later stages of the disease.

Comparison of the obtained data with literary sources demonstrated that previously proposed universal prognostic scales (APACHE II, SAPS II) are significantly less informative in relation to complicated peritonitis. The main reason is that these scales are focused mainly on the general somatic condition of the patient and do not take into account his immunological status.

The inclusion of the IPORP clinical and immunological scale in practice allowed for a more differentiated assessment of the degree of immunopathological risk, the formation of personalized forecasts and, on this basis, the construction of

individualized immunoprophylaxis schemes. This approach determines both the scientific novelty and the clinical significance of the study.

Based on the obtained results, it is advisable to recommend that all patients with widespread peritonitis undergo express immunological examination already on the first day after surgery. The use of this method in combination with traditional clinical scales (APACHE II, SAPS II) increases the accuracy of risk stratification, allows for the timely identification of patients with an unfavorable prognosis and provides the possibility of more targeted preventive and therapeutic measures.

CONCLUSIONS:

1. The inclusion of the IPORP clinical and immunological scale in practice has made it possible to more differentiatedly assess the degree of immunopathological risk, form personalized forecasts and, on this basis, build individualized immunoprophylaxis schemes.

2. Based on the results obtained, it is advisable to recommend that all patients with widespread peritonitis undergo express immunological examination already on the first day after surgery. The use of this method in combination with traditional clinical scales (APACHE II, SAPS II) increases the accuracy of risk stratification, allows timely identification of patients with an unfavorable prognosis and provides the possibility of more targeted preventive and therapeutic measures.

LIST OF REFERENCES

1. Rakhimov O., Tirkashev S., Rashidov Z. Features of the postoperative period after laparoscopic cholecystectomy // Science and innovation. - 2024. - Vol. 3. - No. D5. - P. 387-393.
2. Sh A. A. et al. Immunological Changes in Destructive Cholecystitis // International Congress on Biological, Physical And Chemical Studies (ITALY). - 2025. - Vol. 8. - P. 68-70.
3. Abdumazhidov A. Sh. et al. Treatment of patients with infected cystic liver lesions with decasan solution // New Day in Medicine. - 2020. - No. 2. - P. 285-289.
4. Altyev BK et al. Features of clinical manifestations of intra-abdominal complications after operations on the biliary tract (literature review) // Young scientist. - 2016. - No. 27. - P. 230-234.
5. Ismailov FM, Alimkhanov OO, Zuparov KF Clinical and Laboratory Aspects in Patients with Perforation of Hollow Organs // Research Journal of Trauma and Disability Studies. - 2024. - Vol. 3. - No. 10. - P. 230-233.
6. Rakhimov OU, Tursumetov AA Comparative analysis of clinical and economic efficiency of various methods of hemostasis after cholecystectomy // Innovative technologies in medicine: a young specialist's view. - 2022. - P. 42-44.

7. Khamdamova M.T., Akramova D. E. Genetic aspects of genital prolapse in women of reproductive age // *New day in medicine*. Bukhara, 2023. - No. 5 (55). - P. 638-643.
8. Khamdamova M.T., Teshayev Sh.Zh., Hikmatova M.F. Morphological changes of the thymus and spleen in renal failure in rats and correction with pomegranate seed oil // *New day in medicine*. Bukhara, 2024. - N. 3(65). - P. 167-187.
9. Khamdamova M.T., Khasanova M.T. Various mechanisms of pathogenesis of endometrial hyperplasia in postmenopausal women (literature review) // *New day in medicine*. Bukhara. 2023. - No. 8 (58). - P. 103-107.
10. Khamdamova M.T., Zhaloldinova M.M., Khamdamov I.B. The state of nitric oxide in blood serum in patients with cutaneous leishmaniasis // *New day in medicine*. Bukhara, 2023. - No. 5 (55). - P. 638-643.
11. Khamdamova M.T., Zhaloldinova M.M., Khamdamov I.B. The value of ceruloplasmin and copper in blood serum in women wearing copper-containing intrauterine device // *New day in medicine*. Bukhara, 2023. - No. 6 (56). - P. 2-7.
12. Khamdamova M.T., Akramova D. E. Immediate and long-term results of surgical treatment of genital prolapse in elderly women // *New day in medicine*. Bukhara, 2025. - N3 (77). - P. 201-206.
13. Khamdamova M. T., Khasanova M.T. Genetic mechanisms of development of endometrial hyperplastic processes in women in menopausal age // *New day in medicine*. Bukhara, 2025. - N3 (77). - P. 207-211.
14. Khamdamova M. T., Umidova N. N. Genetic factors of genital endometriosis // *New day in medicine*. Bukhara, 2025. – N4 (78). - P. 82-87.
15. Efgan, M. G.; Akar, H.; Kanter, E.; Kirik, S.; Duman Shahan, T. Role of systemic immune inflammation index, systemic immune response index, neutrophil lymphocyte ratio, and platelet ratio in predicting peritoneal culture positivity and prognosis in patients with spontaneous bacterial peritonitis admitted to the emergency department. *Medicina* 2024 , 60 , 1335.

PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF DESIGN IN FINE ARTS EDUCATION

Madrakhimova Kunduz Otabek kizi

Independent researcher

Abstract This article examines the psychological and pedagogical foundations of design in fine arts education. Through design elements, the processes of forming students' artistic and aesthetic thinking, creative abilities, and practical skills are analyzed. The psychological characteristics of students and the importance of pedagogical approaches appropriate to the age period are also highlighted. As a result of observations conducted on the basis of an integrated approach, the motivational, cognitive, and creative developmental functions of design in the educational process were determined.

Keywords: fine arts, design, psychology, pedagogy, creative thinking, methodology, motivation.

Fine art has always been an important tool in the formation of human thinking and aesthetic worldview. In the modern era, the introduction of design elements into this area serves to increase the effectiveness of the educational process. A distinctive feature of design is that it harmonizes the aesthetic value of art with practical needs. Therefore, the integration of fine arts and design is one of the pressing issues in pedagogical science.

From a psychological point of view, elements of visual activity and design expand students' thinking, enhance sensitivity to color and form, and develop creative imagination. From a pedagogical point of view, classes organized on the basis of design ensure interactive, motivational, and personality-oriented learning. Therefore, this article analyzes the theoretical and practical aspects of the psychological and pedagogical foundations of design in fine arts education..

The following methods were used in the study:

1. Theoretical analysis - scientific literature on psychology, pedagogy, and the methodology of fine arts was studied.
2. Observation - the use of design elements in fine arts classes in schools and higher educational institutions was observed.
3. Through pedagogical experiment - lessons organized on the basis of design, the interest and creative activity of students were analyzed.

4. Conversation and questionnaire - opinions and impressions of students about design elements were collected.

The conducted research showed the following results:

- Design elements increased students' interest in the lesson, they were more actively involved in visual activities.
- In the process of working on the basis of color, form, and composition, the psychological characteristics of students (memory, attention, imagination) developed positively.

Pedagogical experience has shown that in design-based classes, students put forward more creative ideas and were able to express them visually.

Design integration created a motivational environment in the educational process: students felt free during the lesson, and their creative independence increased.

The results show that the organization of fine arts lessons, taking into account the psychological and pedagogical foundations of design, yields effective results. Firstly, psychologically, design elements enhance children's sensory organs and visual perception, and develop their aesthetic abilities. Secondly, from a pedagogical point of view, classes based on design involve students in an active, independent, and interactive learning process.

In scientific literature (Hasanov, 2022; Nurmatova, 2023), it is noted that design approaches in fine arts are an important factor in the development of an individual's creative potential. The research results also confirm this statement. At the same time, the integration of design plays a special role in preparing students for future professional activity, since design is one of the most in-demand areas in the modern labor market today.

Based on the research, it can be concluded that the psychological and pedagogical foundations of design in fine arts education are an important factor in the creative development of students, the formation of aesthetic taste and practical skills. From a psychological point of view, design develops students' sensitivity to color, form, and composition, and from a pedagogical point of view, it ensures their activity, independence, and creativity in the learning process.

Therefore, it is necessary to methodologically deepen the integration of design in fine arts education and its widespread use in pedagogical practice. This approach effectively supports students' personal development, creative potential, and preparation for future professional activities.

References

1. Hasanov, B. (2022). *Zamonaviy dizayn metodikasi*. Qarshi: Nasaf nashriyoti.
2. Nurmatova, D. (2023). “Tasviriy san’at ta’limida innovatsion yondashuvlar”. *Pedagogika va san’at jurnali*, 4(2), 45–52.
3. Karimov, S. (2021). *San’at va dizayn integratsiyasi nazariyasi*. Toshkent: Fan nashriyoti.
4. Xudoyberdiyev, M. (2020). *Tasviriy san’at psixologiyasi va metodikasi*. Samarqand: Zarafshon.

**JADID SHE'RIYATIDA MUMTOZ ADABIY JANRLARNING
DAVOMIYLIGI**

Axrorova Mahina Avazovna

Rahmatova Dilfuza Ahmedovna,

Sharof Rashidov nomidagi

Samarqand davlat universiteti o'qituvchilari

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD

Qahhorova Marjona Ikromjonovna

Samarqand shahar 11-maktab o'qituvchisi

mahinaaxrorova@gmail.com

Tel: 91 552 10 15

Navoiyning an'anasi jadid o'zbek adabiyotida asosan ikki yo'l bilan o'zlashtirilgan:

1. *Navoiy lirikasining janriy an'analari.*
2. *Navoiy asarlaridagi obraz-timsollarni (yo dostonlardagi poetik hikoyalar, obraz-timsollardan) birortasining ijodiy qayta ishlanishi.*

1. Navoiy lirikasining janriy an'analari natijasida jadid adabiyotining go'zal namunalari yaratildi. Yangi o'zbek she'riyatining poetikasi, xususan uning shakllanish davri hisoblangan 1905-1917 yillar shuni ko'rsatadiki, adiblarimiz yangi davr voqyeligini tasvirlashda an'anaviy adabiyot motivlaridan samarali foydalandilar va undagi ifoda vositalarini, usullarini yangi mavzu va masalalarga tatbiq etishga urindilar. Birgina Alisher Navoiy badiiy tafakkurining mumtoz adabiyotimiz taraqqiyotidagi ulkan ahamiyatini jadid adabiyoti namoyandalari, birinchi galda, Elbek, Abdulla Avloniy, Ibrat, Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat ijodlari o'zbek realistik adabiyotining vujudga kelishi, shakllanishi va rivojiga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Bu davrda ijod etgan shoirlarning adabiy-estetik qarashlarini tushunish, she'rlari zamiridagi istioraviy-ramziy ma'nolarni teran ilg'ash va ularga munosabat bildirishdan avval, Alisher Navoiy hazratlari she'riyatiga bir nazar tashlab o'tish joiz. Zero, "Adabiyotning xususiyati, mazmuni hamda vazifasi haqida bag'oyat ma'nodor bir ta'rif Navoiyning she'riyatga qarashini to'g'ridan-to'g'ri va ochiqdan-ochiq ifodalaydi¹". Alisher Navoiy she'riyati timsol va obrazlar olamida ilohiy-islomiy, tarixiy-afsonaviy, adabiy-badiiy siymolar talqini alohida poetik ko'lam kasb etadi. Alisher Navoiy lirikasida bunday siymolar badiiy talqiniga asos bo'lgan manbalar xilma-xildir. Shoir badiiy-estetik tafakkuri uchun boshqa mumtoz ijodkorlar singari

¹ Мақсуд Шайхзода. Ғазал мулкининг султони. - Тошкент, 1972, 195-бет.

diniy-ilohiy, tarixiy-memuar, og‘zaki-yozma manbalar bu xil obraz-timsollar talqiniga ilhom manbai sanaladi².

Har bir xalqning she‘riyati milliy qadriyatlar mezonlariga tayanadi, an‘anaviylik mezonlari asosida shakllanadi. Zotan, millat shoirining badiiy uslubi, she‘riyatidagi poetik obraz, istioraviy-ramziy tasvirlarning rivoji, bardavomligi milliy an‘analar zamirida yangi-yangi jihatlarning kashf etilishi bilan bog‘liq adabiy jarayondir.

Xususan, Navoiy hazratlari o‘z she‘riyatida an‘anaviylik va ramz-ishoralarni qo‘llashga izchil va teran yondashgan. Aslida bunday yondashish milliy adabiyotda an‘analar uzluksizligini ta‘minlovchi mezon hamdir. Hazrat Navoiyning an‘anaviy, xalqona ohangga boy, ko‘ngil nidosi bilan bitilgan an‘anaviy she‘riyati tajribalaridan andoza olish davr ijodkorlari uchun yuqori samara berganligi sir emas. Hatto, Furqat o‘z memuarida bolalik davri, maktabda o‘qib yurgan kezlari to‘g‘risida so‘zlar ekan, o‘sha vaqtlardayoq Alisher Navoiyni g‘oyibona ko‘rganini, u bilan hamsuhbat bo‘lganini va “she‘r mashqiga” undan fotiha olganligini hikoya qilgan edi. Furqat Navoiyning qator g‘azallaridagi she‘r tuzilishini, qofiya tartibini, radiflar ishlatishdagi tajribalarni saqlagan holda bir qancha go‘zal g‘azallar yozdi. Uning “Gul”, “Koshki”, “Isi” radifli g‘azallari shular jumlasidandir³.

Avvalo, yangi davr adabiyotida ham ko‘p asrlik adabiyotimizning yetakchi turi bo‘lgan she‘riyat asosiy o‘rinni egallasa-da, bir qator janriy, vazniy o‘zgarishlarga uchrab bordi. Adabiyotshunos olimlarimiz fikriga qo‘shilgan holda, bu davrda qadim davrlardan kelayotgan adabiy turlar saqlandi. Devon adabiyotida she‘riyat (poeziya) asosiy o‘rin egalladi. Aruz asosiy vazn bo‘ldi. G‘azal, ruboiy, tuyuq, ta‘rix, muammo, muxammas, musaddas, musamman va ayniqsa, masnaviydan keng foydalanildi.

Sayohat xotiralarini ifodalovchi sayohatnoma janri maydonga keldi⁴. Bu davrda qadim turkiy she‘r vazni *hijoga* murojaat kuchaydi. Shoirlar ko‘plab she‘rlarini xalq qo‘shiq-lari yo‘lida yozdilar. Avloniy, Hamza kabi shoirlar kuy-qo‘shiq-lar yo‘lida bitilgan maxsus she‘riy kitoblarni e‘lon qildilar. Yevropa adabiyotiga xos *verlibr* kirib keldi. Shunday janriy va vazniy o‘zgarishlarga uchragan jadid adabiyoti 10-yillarning oxiri, 20-yillarning boshidagina har jihatdan to‘laqonli adabiyotga aylandi. Jadid ijodkorlari Sharq she‘riyatining bir qancha janrlarida ijod qilganlar.

Adabiyotshunos M.Tojiboyeva qayd qilishicha, jadid shoirlari ijodida mumtoz she‘riyatda qo‘llanilgan o‘n yetti janrdan o‘n birini kuzatamiz⁵.

² Холмуродов Х. Алишер Навоий шеърлятида образ-тисмоллар трансформацияси (Фарход ва Ширин мисолида): Филол.фан. бўй. фалсафа докт (Phd). – Жиззах, 2022. –Б.12.

³ Каримова С. Зокиржон Фурқат лирикасининг давр хусусиятлари ва аънаналари: Филол.фан.номз.дисс. автореф. -Самарқанд, 1999. – Б.8.

⁴ Қосимов Б. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. – Тошкент, 2004. – Б. 12.

⁵Тожибоева М.А. Жади́д ади́блари ижодида му́мтоз адабиёт аънаналари: Филол.фан.докт. -Тошкент, 2018. -Б. 20.

Jadid ijodkorlari	G' azal	Muxammas	Musaddas	Mustazod	Murabba'	Musabba'	Bahri tavil	Ruboiy	Muammo	Masnaviy	Qasida	Tuyuq	Tarje' band	Jami
Mirzo Sahbo	12	38	2	+	+	+	-	-	-	+	-	-	-	550 ta, 61 tasi o'zbekch a
Dilshod Otin	+	+	+	+	+	+	-	+	-	-	-			91 ta o'zbekch a, 61 ta tojikcha
Saidahmad Vasliy	+	+	+	+	+	+	-	+	-	-	-			12 ming bayt she'r, 25 ilmiy risola
Komil	159	21	2	1	10	1	1	4	1	-	1			201
Oraziy	18	34	-	-	2	-	-	-	-	-	-			66
Habibiy	294	41	3	-	5	-	-	7	-	4	-	9	10	373
Faqiriy	19	6	3	1	2	-	-	-	-	2	-	-	-	33
Muhammad Raximxon Feruz	98	7	2	-	-	-	-	7	-	4	-			2534
Muqimiy	19	14	-	-	3	-	-	-	-	-	-	-	-	10 ming misra
Furqat	246	25	4	1	2	1	-	-	-	15	4	-	1	299

Shunga ahamiyat berish kerakki, g'azal XV asrda bo'lgani kabi XIX asr oxiri XX asr boshlarida ham o'zbek adabiyotida yetakchi janrlardan sanalgan. Jadid ijodkorlari go'zal namunalar yaratganlar.

Abdulla Avloniy ijodida g‘azal o‘rni haqida so‘z yuritilarkan, prof. B.Qosimovning «klassika bilan oshnolik uning shoir va grajdan sifatida shakllanishiga benihoya katta ta‘sir ko‘rsatadi» so‘zlariga tayanamiz. Shoirning Hijron taxallusi bilan yozilgan «Adabiyot yohud milliy she‘rlar» to‘plami «Ifodai maxsus» nomli debocha bilan ochilgan. Har bir juz an‘anaviy hamdu na‘t, g‘azal, murabba‘, muxammas, musaddas, musamman, tarji‘band kabi janrlarda yozilgan she‘rlardan iborat tarzda tarkiblangan. G‘azalda ijtimoiy ruhni berish Navoiy she‘riyatidan boshlangan. Bobur, Ogahiy she‘rlarida davom ettirilgan bu an‘ana o‘zbek jadid she‘riyatida badiiy asar mohiyatini tashkil etuvchi jihatga aylandi. G‘azalday intim munosabatni ifodalovchi janr tabiatiga ham ijtimoiy ruh singib, davrning muhim belgisi – mustamlaka siyosatiga qarshi turish, millatning erk va ozodligi uchun kurash yetakchi g‘oyaga aylangan edi. Avloniyning «Do‘ndurdi» radifli g‘azali Vatan tufrog‘i deb motamsaro ko‘z yoshlarini qonga to‘ldirgan lirik qahramon e‘tiqodini berishga qaratilgan⁶. O‘zbek jadid she‘riyati milliy adabiyotimizning ko‘rki bo‘lgan, boqiy qadriyatlar sifatida avloddan-avlodga o‘tib kelgan, jahon adabiy-badiiy xazinasini boyitgan Alisher Navoiy, Bobur, Mashrab, Ogahiy kabi buyuk shoir va mutafakkirlar ijodidan ma‘naviy oziqlangan, ular ijodida barqaror bo‘lgan siyosiy-ma‘rifiy g‘oyalar, an‘anaviy timsollar, badiiy vositalardan unumli foydalangan. Shoir Oraziy qaysi adabiy tur va janrda ijod qilmasin, Navoiy, Muqimiy, Furqat va boshqa o‘zbek, tojik mumtoz shoirlari an‘analarga suyangan holda o‘z g‘azal, muxammas, murabba‘, ruboiylarida muhabbat, insoniylik, ezgulik, hayotiylik, xalqchilik kabi mavzularni davom ettirdi. U Ogahiyning «Bahri taassuf ichra botar doimo ko‘ngul» degan hasratini yangi sharoitda davom ettirib, hayotga va jamiyat hodisalariga haqiqat ko‘zi bilan yondashdi. «Ey ko‘ngil» radifli g‘azalida lirik «men» baytdan-baytga mantiqan o‘sib boruvchi isyonkor timsol bo‘lib gavdalandi. Shoir hayotdagi noqis hollarni shunchaki kuzatib, “*So‘zlasang, avval zamonning holini bir o‘lchagil*” deydi va bayon etibgina qolmadi, balki bunday ijtimoiy muhitda bo‘layotgan vaziyatlarning yaralish sabablarini izladi. Shoir lirikasida bir qarashda yor vasfi, bir qarashda davr ilg‘or “men”ining ichki dramasi, bir qarashda “sen”ga maslahat tarzida kuylangan. Oraziyning “Topilmaydi”, “Ey ko‘ngil”, “Boxabar bo‘l”, “Darkor emas”, “A‘lodur”, “Ey dil” kabi g‘azallarida mehnatkash xalqning jabr-jafo keltiruvchi davrdan shikoyati, noroziligi aks ettiriladi va *Rohat – mashaqqat ostidadir, aql erur guvoh,*

⁶ Тожибоева М.А. Жадид адиблари ижодида мумтоз адабиёт аънаналари: Филол.фандокт. -Тошкент, 2018. -Б. 17.

Oltin, kumush ham o'tga tushib beg'ubor o'lur (Oraziy, 20), deb yorqin, beg'ubor kunlar kelishiga ishonadi.

Komil Xorazmiy adabiyot tarixiga mumtoz she'riyatning adabiy vorisi va ijodiy davomchisi sifatida kirib keldi. Chunki u Navoiy asarlarini juda sinchiklab o'rganadi, uning ruhiga kirgach, poetik ijodda navoiyvor qalam tebratishi bilan faxrlangan:

Netong Komil Navoiy yonglig' o'lsa so'z aro sarmast...(Komil, 7) deb yozadi.

Komil "Devoni"ning asosini tashkil qilgan g'azallarda Navoiy ijodiga yaqinlik aniq seziladi. Shoir mumtoz janrda ko'proq g'azal-naziralar bitgan bo'lsa-da, ishq ahli ruhiyatidagi ziddiyatlarni ijtimoiy hayot hodisasiga nisbat qiladi, ijtimoiy g'oya va ishqiy tuyg'ularni bir she'r doirasiga singdiradi. Mumtoz an'anadan bahramandlik shoir ijodida Ibrat, Oraziy, Faqiriy asarlaridan farqli ravishda poetik ma'noni ifoda qilishga qaratilgan tanish timsollarga qayta-qayta murojaat qilib, uning yangi qirralarini ochishda ko'rinadi. Shoir Komil tomonidan bitilgan "qaro" radifli g'azalini keltiramiz:

Ul pari paykar kiyibmu egniga chakman qaro,

Yo libosin tundin aylabmu mahi anvar qaro (Komil, 20) baytida ham, bir jihatdan, «Navoiy nafasi sezilib turgani» ko'zga tashlansa, ikkinchi jihatdan, poetik timsolni tadrijan rivojlantirib, o'zligini zamona holati bilan bog'lab yangi poetik manzara yaratganining guvohi bo'lamiz.

Navoiy: *Xil'atin aylabmudur ul sho'xi siyminbar qaro,*

Tun savodi birla kiygandek mahi anvar qaro (Komil, 20), deb sho'x go'zalning nurli oy qorong'uligida hashamatli kiyimlarini o'rniga qora kiyim kiyib olibdimi yoki tunda eng go'zal oy qora kiyingandekmi? so'rayotgandek, unga javoban shoir Komil "chakmon" kiyganligi ta'kidlaydi. Ya'ni o'sha zamondagi urf bo'lgan chakmonga urg'u beradi va bu bilan jamiyatda o'zgarish bo'layotgani, qaysidir chakmon kiygan e'tiborda-yu, qolganlar xizmat ekanligidan noliyotgandek tuyuladi. Bunda bir qarashda go'zalning libosi, bir qarashda jamiyatdagi o'zgarishga urg'u beriladi.

Navoiy: *Dudi ohidin qora ermas Navoiy kulbasi*

Kim, qiliptur xonumonin bir pariypaykar qaro.

Navoiy kulbasi uning ohi tutuni bilan qaro bo'lgani yo'q, uning xonumonini – ko'ngil uyini bir parimisol go'zal qora qilgandir, deydi.

Komil: *Yona bir oqshom kelib, sham'i shabiston bo'lango,*

Kim uzoring hajrida Komilg'adur maskan qaro (Komil, 20).

Bir oqshom kelib qorong'u kechamni sham kabi yorug' qil, yo kelmasang sening yuzingni ko'rish hajrida shu maskan Komilga qora ko'rinadi, deb yozadi.

Shoir ijodiga xos xususiyat bu g'azallarning hayot va xalqning turmush tarziga yaqinligidir. U o'z davrida hukm surgan ijtimoiy, ma'naviy ahvoldan, hayotga

bo'lgan qarashlaridan kelib chiqib obrazlarni yaratadi. Xalqning ezilayotganligi, zulm va zahmat kundan-kunga avj olayotganligi, siyosiy huquqsizlik, moddiy qiyinchiliklar ortayotganini aytib shoir noroziligini ifodalaydi:

*Hilol etmang xayol, ey do'stlar, bu gunbazi gardon,
Yasar el qatlig'a har oy boshi bir xanjari burron (Komil, 131).*

Shoir har oy boshida yarqirab chiqadigan yangi oy-hilolni xalqni o'ldirish uchun yasalgan o'tkir xanjarga o'xshatadi.

*Quyoshdek kimni iqbol avji uzra gar chiqarsa subhb
Qilur shom o'lmayir idbor tufrog'i aro pinhon (Komil, 131).*

Faqiriy ijodida ham g'azal asosiy o'rnlarni egallagan. 1923-yilda nashr ettirilgan "Yug'urmi" she'rlar to'plamiga sara g'azallari kiritilgan. Uning "Ey ko'ngil" g'azali Navoiyning "sanga" radifli g'azalidan ilhomlanib yozilgan, deb aytish mumkin.

Navoiy: *Ey hamd o'lub mahol fasohat bilan sanga,
Andoqki, qurb taqvovu toat bilan sanga.*

Topmoq ajib fikru taxayyul bila seni,

*Etmak mahol aqlu farosat bilan sanga*⁷. Ya'ni har qancha shirin va mazmundor so'zlar bilan seni ta'rifingni ifodalash xuddi diniy buyruqlarni bajarish, ularga buysinish bilan senga yaqinlashish mushkuldir. Har qancha fikru xayol bilan seni topmoq ilojisiz bulganidek, aqlu farosat bilan senga yetishmak ham shunchalik qiyindir. Chunki qahramon shunchalik diniy amallarni o'z o'rnida, to'g'ri va aniq bajaradiki, unga amal qilmaslik egasi oldida shakkoklik sanaladi. Uning oldida ikki yo'l yo go'zalni tanlash, yo diniy amallarini ado etish.

Faqiriy: *Ey ko'ngul, oshiftalig'din bu na hijrondur senga,
Nozaninlar vaslini istab bu na armondur senga.*

Ko'rgachin har vohidin ko'yida quyding dam-badam,

Ro'zu shab ahboblar holingga hayrondur senga (Faqiriy, 44) deb Navoiy g'azalidagi qahramonning go'zalni ta'riflashga til ojizligidan, unga yetishishga ham iloji yo'q ekanligidan, go'zalni istab armonda yurishligidan hayron qolmoqda.

Navoiy: *Chun sendin o'zga yo'q panahim qochmayin netay,
Jurmu gunahdin ohu nadomat bilan sanga.*

Isyoni ko'p Navoiyningu yo'q uyotikim,

Istar yetishsa muncha xijolat bilan sanga. Ya'ni, sendan o'zga panohim yo'q, shuning uchun ohu nadomat, gunoh qilib, sening huzuringga qochib borishdan boshqa choram bormi, deydi. Navoiy uyatni ham yo'q qilib, isyon qilib, xijolat bo'lsa-da, huzuringga yetishmoqlik istashini ifodalaydi.

Faqiriy: *Umring o'tdi bu sifat, vobastalig' birla mudom,*

⁷ Алишер Навоий. Ўша асар. – Б. 10.

Dilrabolar majlisi-chun bog‘-bo‘stondur senga.

Bu jahon ra‘nolariga muncha hirs o‘lmoq xato,

Sodiq ersang vaslig‘a yetmaklik osondur senga. Shoir Navoiyga javoban agar har bir narsaga sodiq bo‘lsang, o‘sha maqsadga ishonsang yetishishi mumkinligi haqida maslahatomuz misralarni bitadi. Navoiyda yor obrazi Olloh bo‘lsa, ma‘rifatparvar shoirlarda asosan, ilm, ma‘rifat, taraqqiyot, xalq tushunchalarini ifodalaydi va hokazo. Bu obrazlarga yangi mazmun, yangi ohang kiritganlar.

Habibiy ijodida mumtoz an‘naviylik o‘ziga xos ko‘lamda aks etgan bo‘lib, uning misralarida inson hayoti murakkabligi tasvirlanadi, fikrning umumiylikdan xususiylikka, mavhumlikdan konkretlikka o‘tib borishi kuzatiladi. Habibiy

“Devoni”ning so‘z boshisida shunday yozadi: “...ayniqsa, Alisher Navoiyning “Xamsa”sidagi fasohatu balog‘ati, Fuzuliyning “Layli va Majnun” dostonida mubolag‘a ustidagi jo‘shqin mahorati o‘qigan sayin muhabbatimni o‘ziga tortib, meni maftun qilar edi⁸”. Hatto bu haqda “Laziz” radifli g‘azalida ham keltirib o‘tadi:

Avj olur zavqim Navoiy nazmiga boqsam agar,

Turfa ham Farhod Shirin bobida doston laziz (Habibiy, 45).

“Ustoz” radifli g‘azalida har bir she‘r mashqida Alisher Navoiy ustoz ekanligini faxr bilan kuylaydi:

Zabardast olimu ilm avjida topgan maqom, ustoz,

Suxan maydonida she‘rim Alisher, assalom, ustoz (Habibiy, 46).

Furqatning go‘zal lirik merosi – g‘azallar, muxammas, musaddas, masnaviy, tarji‘band, qasida, qit‘a, fardlari mumtoz she‘riyatimizda o‘ziga xos o‘ringa ega.

Uning umr g‘animatligini, hayot go‘zalini ta‘riflab yozgan she‘rlari hamon o‘quvchi qalbiga olam–olam quvonch solib, dil dardlariga malham bo‘lib kelmoqda. Quyidagi mashhur baytlarga bir diqqat qilaylik:

Ul qaro ko‘z ko‘zlarig‘a surma bejo tortadur,

Balki andin dahr eli ortuqcha g‘avg‘o tortadur⁹...

Bahor ayyomi gul – gasht etarg‘a bir chaman bo‘lsa,

Qilurg‘a sharhi hol ahli muhabbat – ikki tan bo‘lsa... (Furqat, 21).

Menimcha, mazkur misralarni izohlab o‘tirishning hojati yo‘q. Ularning barchasi o‘quvchiga yaxshi tanish, qadrdon bo‘lib kelgan nazm injularidandir. Ularda ifodalangan mazmun esa bugungi kundagi o‘quvchini ham hayajonga soladi, qalbiga quvvat–mador bag‘ishlaydi. Nazm oshig‘i bo‘lgan kitobxon ulardagi abadiylik belgilari bo‘lmish ma‘no tovlanishlaridan o‘ziga ham pand – o‘git, zavq va surur oladi. Mumtoz she‘riyatning siru sinoati ham shunda bo‘lsa kerak.

⁸ Хабибий. Девон. – Тошкент, 1980. – Б.10.

⁹ Фуркат. Танланган асарлар. 1-том. – Тошкент, 1959. – Б.183.

Alisher Navoiy musammatning murabba' shaklida «har qaysi uslubda» «turk tili bila qalam surub», «ma'no akborig'a ziynat va oroyish ko'rguzushga» («Muhoka-matu-l-lug'atayn») muyassar bo'lgan. Navoiy an'anasi o'zbek mumtoz adabiyoti ijodkorlari orasida juda tez tarqaldi va keng tus oldi. Faqiriy, Komil, Habibiy, Oraziy, Ibrat, Cho'lpon, Avloniy, Ajziy, Xondayliqiy ijodiyotidan musammatning turli shakllari mustahkam o'rin olgan. XVII asrga kelib musammatning murabba' shaklidagi she'rlar salmoqdor o'rin tuta boshladi. XIX asrning ikkinchi yarmidan keyin murabba' an'ana asoratidagina qolmasdan, davr shoirlarining maqsadlariga ko'ra janrga yangilik kirgizilib, mazmun doirasi kengaytirildi¹⁰. Jumladan, Oraziy bir murabba'sida firibgar, tovlamachi, tamagir, quzg'un amaldorlarni ochiqdan-ochiq tanqid ostiga oladi. Amaldorlarning o'zlari halol-haromning farqiga bormaydi, farzandlari nima qilsin, degan muammoni o'rta tashlaydi:

*Kimsada farzandlar esa nosazo,
Bo'lsa badaxloqlikka muhtalo,
Qilmasa ul pand-nasihati qabul,
Qon yutadur doyim otoyuno.
Voy, qayu otaki bebokdur,
Yoki piyonistai nopokdur.
Fazl-hunar topgan o'g'il naylasun
Chora qilolmay yuragi chokdur (Oraziy, 109).*

Shoir boshqa bir murabba'sida dindorlar qiyofasini tasvirlar ekan, ularning xatti-harakatlari, kirdikorlari, qilmishlarini badiiy tarzda ifodalaydi:

*Zuhd eli may harom deydurlar,
O'zlari harom taom yeydurlar,
Soddalikcha savol ham aylar,
Yeb ko'knor, af'yun, banggisidan (Oraziy, 109).*

Oraziy murabba'lari muhim ijtimoiy masalalarni ochiqdan ochiq bayon etib, barmoq vaznida yozgan bo'lsa, Faqiriy, Komil, Habibiy ijtimoiy masalalarni mumtoz adabiyotga suyangan holda go'zal yor obrazi orqali aruz vaznida yoritishgan:

*Ey, mening ko'nglumni olg'an, jonajon, arzim eshit,
Balki bu jonimdin ortiq, mehribon, arzim eshit,
Tinglagil, solgil quloq, eldin nihon arzim eshit,
Sirri asrorim senga aylay ayon, arzim eshit (Oraziy, 109).*

Shoir mehnatkash xalq nomidan yorga murojaat qiladi, xalqni och-yalang'och, o'lkani notinch va vayronagarchilikda ko'rdi. Qamchisidan qon tomib turgan xon va

¹⁰ Тожибоева М.А. Жадид адиблари ижодида мумтоз адабиёт анъаналари: Филол.фан.докт. -Тошкент, 2018. -Б. 20.

amaldorlar bechora xalqning arz-dodini eshitadigan, og‘ir qismatini yengillashtiradigan biror kimsa yoki biror mahkama topilmadi. Arzini bayon etsada, hech kim quloq solmadi.

*Gulistoni jahonda bo‘lg‘ali paydo bahoriston,
Emasdur hech bir gulshan jamoling bog‘idek rayyon,
Qadingdek yo‘q nihole, lablaringdek g‘unchayi xandon,
Qadi sarvi xirmonim, labi gulbargi xandonim (Komil, 171).*

Komil g‘azallarida oshiqning qalb to‘lqinlari sodda va hayajonli tasvirlangan. An‘anaviy oshiq, yangi hayotiy obrazga aylangan. Navoiyda labning jon baxsh etishi, xolning qoraligi hinduga o‘xshashi mavjud. Ammo, Komil Xorazmiy kulib turgan g‘uncha (g‘unchayu xandon, gulbargi xandon), ya‘ni endi ochilayotgan g‘unchaga, qaddini nihol va sarvga qiyos qiladiki, o‘sha davrda yangilanish natijasi, xalqning dunyoqarashi endi ochilayotgan g‘uncha ekanligiga urg‘u beradi.

*Ey men kabi pok oshiqdan doim ogohim,
Ko‘nglim maydonida mehring mehri giyohim,
Bu sharaflı baxtim bo‘lib yorim panohim,
Xalq ichında ozodaman afsonalardan (Habibiy, 317).*

Habibiy esa, umridan o‘kinmaydi, aksincha, o‘zining serfayz umri bilan faxrlanadi. Xalq ichida ham yaxshi nom bilan afsonaga aylanayotganligidan xursand bo‘ladi. U o‘tmish bilan o‘z zamonin taqqoslab, xulosaga keladi:

*O‘lkamda hur yashaydi inson azizu ozod,
O‘z erki birla xurram, bir lahza qayg‘u yo‘q, shod,
Hozirgi turmushimdan mamnunligim ziyoda,
Har damda shukr etarman o‘tmishni aylasam yod (Habibiy, 318).*

Sharq mumtoz adabiyotida shoirlar asarlariga muxammas, nazira bog‘lash ijodiy an‘ana bo‘lgan. Ijodkorlar mumtoz shaklni saqlagan holda uni o‘z davri, turmush tarzi, yangi dunyoqarash bilan rivojlantirganlar. B.Valixo‘jayevning keltirishicha: «Mirzobek-insoniyat va xushaxloqliqda Xuroson va Samarqand mulkida yagona erdi. Tab‘ va fahm va otar-tutarda bu ikki mulk yigitlari orasida saromadi zamona. Va zehni diqqat va maoniy nuqudidin g‘ani erdi. Va tab‘i bu nav‘ ta‘riflardin mustag‘niy. Bu matla‘ aning durkim: Ko‘zung ne balo qaro bo‘lubtur, Kim jong‘a qaro balo bo‘lubtur. Zulqofiyatayndur (ikki qofiyalidir) va qofiyalari tardi akskim, javob aytmoq bu faqir (Alisher Navoiy) qoshida maholatdindur (og‘ir, mushkildir...) Bu matla‘in faqir tugatib, aning yodgori devonda bitibmen» (MAT, 13-tom, 67-68-betlar). Darhaqiqat, Alisher Navoiyning «Badoye‘ ul-bidoya» devonida (keyinchalik tuzilgan «Xazoyin ul-maoniy»da ham) ana shu matla‘ni davom ettirib yozilgan g‘azali mavjud:

Ko 'zung ne balo qaro bo 'lubtur,

Kim jonga qaro balo bo 'lubtur. G'azalda tazmin san'ati qo'llanilgan bo'lib, uning birinchi bayti matla'si Mirzobek qalamiga mansub bo'lsa, qolganlari Alisher Navoiy tomonidan yozilgan. Mirzobekning boshqa bayt yoki g'azallari haqida hozircha ma'lumot yo'q¹¹.

Ibrat ham: *Ko 'zing, ne balo, qaro bo 'lubdur, Kim, jong 'a qaro balo bo 'lubdur* matla'li g'azaliga nazira bog'lagan.

G'azal janrida odatda ishq va oshiqlik mavzusi yoritiladi. Ibrat ham xuddi shu an'ana davom etgani bilan birga g'azal janrining mavzu doirasi kengayib, unda ijtimoiy, falsafiy, tasavvufiy, axloqiy mavzulardan bahs yuritish kuchaytiradi. Davr ruhi, Navoiyda oshiq mashuqadan nolisa, Ibratda oshiq turmushdan nolish, norozilik kayfiyatini ifodalaydi:

Ohim tutuni-la ro 'zg 'orim

*Yaldo tuniday qaro bo 'lubdur*¹².

Davr ruhi, oshiqning jamiyatdagi o'rni, tuzumdan nolishi, "yaldo tuniday qaro ro'zg'ori" dan norozilik kayfiyatlari kelib qo'shiladi.

Komilning muxammasida:

Buki, ko 'nglumdin alam xayli parishon o 'lg 'usi,

Ko 'rguzub ravshan farahdin gavharafshon o 'lg 'usi,

Bu nashot osorikim Komil namoyon o 'lg 'usi,

Ey Navoiy, go 'yyokim yor mehmon bo 'lg 'usi,

Kim murattab aylamish ma 'vo ko 'ngul, abvob ko 'z (Komil, 197).

Habibiy:

Ishq o 'ti dilda, Habibiy, haddan oshdi kun sayin,

Keldi jon bo 'g 'zimga har dam, ingramoq bo 'ldi mayin,

Bu og 'ir dardim bilan qandog ' jahondin ketmayin,

Ey Navoiy, o 'lsam armon etgumdir ichmayin,

Bir sabuhi gulzori boda oshomim bila (Habibiy, 365).

Alisher Navoiyning "Qaro ko 'zum" g'azalining umumiy mazmuni baytlarning o'zaro bog'liqligida anglashiladi. Asar boshida ko'ringan yorga iltijo, vafoga da'vat etuvchi munojot va oshiq sadoqatining izhori bora-bora tabiat, falak ishlari haqidagi o'y-fikrlarga ulanib ketib, hayot boqiyliigi, uning ishq timsolidagi ezgu va safoli nashidasi, Yor jamoliga chanqoq Ko'ngilning dardli talpinishlari kuylanadi. Navoiyning baytlari qatida yashirinib yotgan ma'nolar shu qadar teran, shu qadar

¹¹ Валихўжаев Б. Мумтоз сиймолар. – Тошкент, 2002. – Б.15.

¹² Долимов У. Исҳоқхон Ибрат. – Тошкент: Шарқ, 1994. - Б.84.

ko‘lamliki, u durlar to‘la dengizga o‘xshaydi. Bu dengizga sho‘ng‘igan odam, albatta, yangi ma‘no durlarini qo‘lga kiritib, bahramandlik baxtini tuyishi muqarrar¹³.

Qoriy Xo‘qandiy¹⁴ning go‘zal mahbubaning yorqin tasviri va unga bo‘lgan muhabbat sitamlari aks etgan misralardan tashkil topgan:

*Niqob ochib labi Shiringa ko‘hkan qilg‘il,
Mani asiri balo chohi ul zaqan qilg‘il,
Sochingni sunbuli sarr ustiga suman qilg‘il,
Qaro ko‘zum kelu mardumlig‘ emdi fan qilg‘il,
Ko‘zum qarosig‘a mardum kibi vatan qilg‘il.
Munosib o‘lmadi ushshoq elig‘a nom ila nang,
Ko‘ziga xascha erur mulki Rumu Shomu farang
Xayoli sayrida Qoriy ayoqing o‘ldi chu lang,
Navoiy anjumani shavq jon aro tuzsang,
Oni boshog‘lig‘ o‘qin sham‘i anjuman qilg‘il (Qoriy, 97).*

“Yusuf Saryomiyini ham Alisher Navoiy merosini chuqur o‘rganganini, uning ko‘plab g‘azallariga tatabbu’ va taxmislar yaratganini, jumladan, “shayx” radifli hajviyasiga muxammas bog‘lagan yagona ijodkor bo‘lganligini aytib o‘tilgan¹⁵”.

Xullas, 20–30-yillar o‘zbek milliy adabiyotidagi an‘anaviylik, she‘riyat zamiridagi timsol va ramzlarning yangicha takomili jadid adabiyoti she‘riyatida o‘z aksini topdi. Endilikda ana shu she‘riyat mohiyatini to‘la anglashga ehtiyoj ortayotir. Ko‘rinib turibdiki, bu – shoir shaxsiyatiga doir adabiy manbalarni yanada teran, shoir she‘riyatiga xos navoiyona an‘anaviylik xususiyatlarini keng miqyosda o‘rganishni taqozo etadi.

Demak, jadid shoirlari ijodida mumtoz she‘riyatda qo‘llanilgan o‘n yetti janrdan o‘n birini kuzatamiz. Shunday ekan, bu holning o‘ziyiq jadid shoirlari ijodida mumtoz an‘analar ishtirok etish bilan birga ular jadid adabiyoti vakillarini yangi barmoq tizimidagi janrlarda ijod qilishga muayyan tayyorgarlik vazifasini o‘tagan¹⁶. Mumtoz she‘riyat bilan milliy uyg‘onish davri she‘riyatini bir-biriga tutashtirib turgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Мақсуд Шайхзода. Ғазал мулкининг султони. - Тошкент, 1972, 195-бет.
2. Холмуродов Х. Алишер Навоий шеърлятида образ-тимсоллар трансформацияси (Фарҳод ва Ширин мисолида): Филол.фан. бўй. фалсафа докт (Phd). – Жиззах, 2022. -Б.12.

¹³ То‘liq shath: Комилов Н. Маънолар оламига сафар. – Тошкент: Тамаддун, 2012. – Б. 188.

¹⁴ O‘zbek mumtoz she‘riyati // <https://ziyouz.uz/>

¹⁵ Абдуғафуров А. “Хазойин ул-маоний”дан четда қолган ғазаллар //Навоийнинг ижод олами. – Тошкент:Фан, 2001. -Б.119.

¹⁶ Тожибоева М.А. Жадид адіблари ижодида мумтоз адабиёт аңғаналари: Филол.фан.докт. -Тошкент, 2018. -Б. 20.

